Shuningdek, tijorat banklari solig'ining mikroiqtisodiy nuqtai nazardan real sektorni moliyalashtirishga ta'sirini va firmalarning soliqqa tortilgan banklar bilan mavjud munosabatlari orqali ularning investitsiya, ishlab chiqarish va bandlik bo'yicha qarorlariga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlillari olib borilgan. Buning uchun tijorat banklarining qarz oluvchilarga ta'siri haqidagi batafsil ma'lumotlar Orbis ma'lumotlar bazasidagi firmalarning iqtisodiy natijalari bilan solishtirilib o'rganilgan. Keyinchalik, Amiti va Weinstein [4], shuningdek, Alfaro va boshq. [2] metodologiyalaridan foydalangan holda bank solig'i bilan bog'liq bank faoliyatidagi kredit ta'minotidagi o'zgarishlarni kreditga bo'lgan talabdan kelib chiqadigan o'zgarishlardan ajratib tahlil qilishgan. Ushbu baholash asosida bank solig'ining korporativ ta'sirini o'lchash choralari ishlab chiqish va uning firmalarning turli natijalariga ta'siri tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yevropa tijorat banklari to'laydigan soliqlari va iqtisodiy faollik o'rtasidagi bog'liqlikka oydinlik kiritamiz. Jumladan, moliyaviy institutlar aktivlariga qo'yilgan soliqlar, tijorat banklarining daromaddorligi va kredit siyosatiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganamiz. Shuningdek, tijorat banklari soliqlari natijasida kredit miqdorining qisqarishi korxonalarning sarmoyaviy faoliyati, sotuv hajmi va ish bilan ta'minlash darajasiga qanday ta'sir qilishi tahlil qilinadi. Shu orqali ushbu tartiblarning makroiqtisodiy xarajatlari kredit bozori mexanizmi orqali qanday shakllanishini aniqlashga harakat qilamiz.

Kredit taqchilligi va sarmoyalar pasayishi natijasida tijorat banklari to'laydigan soliqlar banklarning o'z daromadlarini qisqartiradi, bu esa ularni kredit berish faoliyatini cheklashga majbur qiladi. Natijada korxonalar va xususiy sektor uchun moliyaviy resurslar qimmatlashadi. Kichik va o'rta biznes uchun qarz olish imkoniyatlari cheklanadi. Sarmoyalar kamayib, iqtisodiy o'sish sustlashishi mumkin.

Foiz stavkalarining oshishi natijasida tijorat banklari soliq xarajatlarini qoplash uchun kredit foiz stavkalarini oshirishi mumkin, bu esa o'z navbatida iste'molchilarning ipoteka va iste'mol kreditlariga talabini kamaytiradi.



Korxonalar uchun qarz olish narxi ko'tarilib, ularning faoliyat yuritish xarajatlari ortishiga olib keladi.

Iqtisodiy o'sishning sekinlashishi tufayli tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan soliqlar natijasida moliyaviy xizmatlar qimmatlashsa, bu o'z-o'zidan iste'mol va sarmoyalarning qisqarishiga sabab bo'ladi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida rivojlanish sur'atlari pasayadi. Umumiy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bank sektorining moliyaviy barqarorligiga ta'siri: agar soliq yuklamasi juda yuqori bo'lsa, bu banklarning moliyaviy barqarorligiga tahdid solishi mumkin. Bunda tijorat banklari likvidlik va kapital bazalarini mustahkamlash o'rniga xarajatlarni kamaytirishga majbur bo'ladi. Riskli aktivlarga sarmoya kiritish imkoniyati cheklanadi. Banklar o'z operatsiyalarini qisqartirishi yoki boshqa soliq imtiyozlari mavjud davlatlarga ko'chishi mumkin.

Soliq yukining iste'molchilarga o'tkazilishi natijasida banklar ko'pincha soliq yukini mijozlarga o'tkazadi, bu esa tijorat banklari xizmatlari uchun yig'imlar va komissiyalarning oshishiga olib keladi. Shuningdek, depozit foizlarining pasayishi natijasida jismoniy shaxslar va investorlar uchun passiv daromad kamayishiga sabab bo'ladi.

Ta'rifga ko'ra, vaqtinchalik yuqori bank foydasi fonida Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning deyarli yarmi (27 ta mamlakatdan 12 tasi) 2023-yildan boshlab banklar uchun yangi soliqlarni joriy etdi. Yangi soliqlarni hujjatlashtirish va ularning shakllanishidagi katta farqlari bo'ldi, albatta. Geterogenlikning asosiy yo'nalishlaridan biri – soliq bazasidir. Soliq bazasi sifatida quyidagilar tanlanishi mumkin:

- tijorat banklari majburiyatlari yoki aktivlari;
- tijorat banklari foydasi yoki ortiqcha foydasi;
- tijorat banklarining sof foiz daromadi;
- tijorat banklarining sof daromadi (foizsiz daromad yig'indisi) yoki ortiqcha sof daromadi.

Boshqa farqli jihatlar – soliq stavkalari, soliq muddati va banklarga tushadigan umumiy soliq yukidir (bu hukumat uchun moliyaviy daromadga to'g'ri keladi). Demak, tushunishimizcha, geterogenlik banklarga joriy etilgan yangi soliqlarning har xil mexanizmlarga asoslanganini va tijorat banklari uchun turli ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Geterogenlik – turli elementlar yoki ob'ektlar o'rtasidagi farqlar, xilma-xillik yoki nomutanosiblikni anglatadi. Iqtisodiyot va moliya sohasida geterogenlik muayyan jarayon yoki ko'rsatkichlar turli holatlarda va turli sub'ektlarda har xil tarzda namoyon bo'lishini bildiradi. Masalan:

Banklar o'rtasidagi geterogenlik – banklarning turli hajmdagi aktivlarga egaligi, foyda olish darajasi, risklarga munosabati va biznes modellarining har xilligini bildiradi.

Soliq siyosatining geterogenligi – davlatlar yoki hududlar o'rtasida soliq stavkalari va tuzilmasining farq qilinishi anglatadi.

Firmalar o'rtasidagi geterogenlik – kompaniyalarning moliyaviy resurslari, bozordagi mavqei, faoliyat yo'nalishi va raqobat qobiliyatining turlicha bo'lishini taqazo etadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi tijorat banklari uchun yangi joriy etilgan soliqlar yukini hujjatlashtirishda soliqlarni (yillik hisobda) tijorat banklarining riskli aktivlariga (RWA) nisbatan foiz sifatida ifodalaymiz, bu esa arifmetik jihatdan bank kapitali nisbatlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan foiz nuqtalariga mos keladi. Bu usul soliq qiymatini baholashda "prudensial" ta'sirni hisobga olish imkonini beradi. Ushbu soliqlar mablag'lari bank kapitaliga yo'naltirilgan bo'lar edi.

Pridensial (inglizcha prudential) – bu ehtiyotkorlik, xatarlarni boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar va siyosatlarni anglatadi. Bank va moliya sohasida pridensial choralar banklarning mustahkam va barqaror ishlashini ta'minlash, moliyaviy inqirozlarning oldini olish va depozitorlarni himoya qilish uchun qo'llaniladi. Bunday choralarga quyidagilarda ko'rish mumkin:

- Kapital yetariligi talablari – banklar o'z aktivlarini yo'qotish xavfidan himoya qilish uchun ma'lum miqdorda kapital zaxirasiga ega bo'lishi kerak.
- Likvidlik me'yorlari – banklar o'z majburiyatlarini bajara olishi uchun yetarlicha likvid aktivlarga ega bo'lishi talab qilinadi.
- Xatarlarni boshqarish siyosati – banklar kredit, bozor va operatsion xatarlarni nazorat qilish va kamaytirish choralarni ko'rishi lozim.

Pridensial soliq degani esa banklar uchun joriy qilinayotgan yangi soliqlarning bank kapitaliga ta'sirini baholash usuli sifatida ishlatilmoqda. Agar bu soliq mablag'lari bank kapitali sifatida saqlanganda, banklar moliyaviy barqarorroq bo'lishi mumkin edi, deb taxmin qilinmoqda.

Ammo bu talqin mukammal emas, chunki boshqa muqobil ssenariylar ham mavjud. Masalan, tijorat banklari soliq sifatida yig'ilgan mablag'larni aksiyadorlarga dividend yoki aksiyalarni qayta sotib olish shaklida tarqatishi mumkin edi. Shu bilan birga, ushbu mezonlar soliq stavkalarini solishtirish uchun juda qisqa va aniq usulni taqdim etadi.

Soliq qiymati haqidagi ma'lumot bir nechta manbalardan olingan va quyidagi tartibda ishlab chiqilgan. Birinchi navbatda, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) hisobotida mamlakat



bo'limlaridan olingan kutilgan soliq daromadi ma'lumotlaridan foydalanamiz. Agar XVJ hisobotining mamlakat bo'limlarida bu ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, yangi xabarlardan foydalanamiz. Agar XVJ hisobotida mazkur ma'lumotlar bo'lmasa, biz potensial soliq daromadini Yevropa Markaziy banki (ECB) tomonidan taqdim etilgan banklarning birlashtirilgan ma'lumotlaridan foydalanib, soliq bazasi va soliq stavkalariga asosan hisoblaymiz.

Shuni ta'kidlash joizki, soliq qiymati haqidagi ma'lumot mamlakatlar bo'yicha umumlashtirilgan va u ayrim banklarga nisbatan soliqlarning farqli ta'sirini yashirishi mumkin. Hozir endi biz 2023-yildan beri yangi bank soliqlarini joriy etgan barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bo'yicha bank soliqlari tartiblarining tahlillariga o'tamiz. 1-jadvalda mamlakatlar tijorat banklari soliqlarining bazasi, davomiylik muddati va tushumi haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirib, shuningdek, bank daromadlari bo'yicha ma'lumot manbalarini ham ko'rib o'tamiz.

E'tiborli jihati shundaki, Belgiya va Niderlandiyadagi past soliq tushumini inobatga olmaganda, bank soliqlaridan kutilayotgan tushum har yili banklarning xavfga asoslangan aktivlari (RWA)ning 0,25% – 1% oralig'ida joylashgan. Xavfga asoslangan aktivlar (Risk Weighted Assets – RWA) – bu bankning aktivlari va balansdan tashqari majburiyatlari, ularning xavf darajasiga qarab baholanadigan va kapital talablarini hisoblashda foydalaniladigan mezon.

1-jadval tijorat banklari soliqlarining bazasi, davomiylik muddati va tushumi haqidagi ma'lumotlarni umumlashtiradi, shuningdek, bank daromadlari bo'yicha ma'lumot manbalarini ham ko'rsatadi.

1-jadval. Yel davlatlaridagi yangi joriy etilgan bank soliqlari bo'yicha umumiy ma'lumoti¹

Davlat	Soliq bazasi	Soliq davomiyligi	Soliq tushumi, mln yevro	Soliq tushumi, RVA ² foizi	Soliq tushumi manbasi
Belgiya	Passivlar	Doimiy	150	0.04	Ma'lumot manbai / Yangiliklar
Niderlandiya	Passivlar	Doimiy	150	0.02	Ma'lumot manbai / Yangiliklar
Sloveniya	Aktivlar	5 yil	111	0.3	O'z hisob-kitoblari
Estoniya	Foyda	2 yil	60	0.3	Ma'lumot manbai / Yangiliklar
Latviya	Foyda	1 yil	140	0.9	Ma'lumot manbai / Yangiliklar
Litva	NII ³	1 yil va 7,5 oy	250	1.2	Ma'lumot manbai / Yangiliklar
Chexiya	Foyda	3 yil	600	0.5	O'z hisob-kitoblari
Ruminiya	Sof daromad	Doimiy	160	0.2	Ma'lumot manbai / Yangiliklar
Slovakiya	Foyda	3 yil (kamayib boradi)	340	0.8	Ma'lumot manbai / Yangiliklar
Vengriya	Sof daromad	2-3 yil	640	0.6	Ma'lumot manbai / Yangiliklar
Ispaniya	Sof daromad	3 yil	1200	0.1	O'z hisob-kitoblari
Italiya	NII	1 yil	3000	0.25	Ma'lumot manbai / Yangiliklar

Yevropa Ittifoqidagi uchta davlat bank aktivlari yoki majburiyatlari asosida soliq joriy qildi. Bular: Belgiya, Niderlandiya, Sloveniya. Belgiya ma'lum bank majburiyatlari bo'yicha soliq stavkasini 0,13% dan 0,17% ga oshirdi. Bu «mijozlar oldidagi majburiyatlar» (asosan omonatlar) uchun qo'llaniladi, ular Belgiya banklarining umumiy majburiyatlarining taxminan 2/3 qismini tashkil etadi. Ushbu oshirilish natijasida Belgiya soliq tushumini yillik €150 mln ga yetkazishni kutmoqda, bu RWAning taxminan 0,04% ni tashkil qiladi. Kelgusida Belgiya soliq tushumini aniq bir byudjet miqdorida ushlab turish uchun bank majburiyatlari o'zgarishiga qarab soliq stavkalarini har yili qayta ko'rib chiqishni rejalashtirmoqda.

1 <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/001/2024/143/article-A001-en.xml> veb sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2 RVA – bu bank aktivlarining xavf darajasiga qarab baholangan qiymati bo'lib, u bank kapitali talablarini hisoblash uchun ishlatiladi.

3 NII (Net Interest Income, NII) Sof foiz daromadi – bankning foizli aktivlaridan (masalan, kreditlardan) olgan foiz daromadi va foizli majburiyatlari (masalan, depozitlar va obligatsiyalar bo'yicha to'langan foizlar) o'rtasidagi farqni anglatadi.



Niderlandiya bank soliqlarini qisqa muddatli majburiyatlar (1 yildan kam) uchun 0,06% ga va uzoq muddatli majburiyatlar (1 yildan ko'p) uchun 0,03% ga oshirdi (avvalgi stavkalar mos ravishda 0,04% va 0,02% edi). Depozit va kapital shaklidagi majburiyatlar soliqqa tortilishdan mustasno. Har yili €150 mln yig'ilishi kutilmoqda, bu RWAning 0,02% ni tashkil etadi.

Belgiya va Niderlandiyaning yangi bank soliqlari juda past darajadagi fiskal tushumni keltirishi bilan ajralib turadi. Ikki davlatda ham ushbu soliqlar doimiy tarzda qo'llanishi rejalashtirilgan.

Sloveniya bank aktivlariga 0,2% miqdorida soliq joriy qildi. Banklar uchun juda og'ir yuk bo'lmazligi uchun ushbu soliq banklarning soliqdan oldingi foydasining 30% i bilan cheklangan. Biroq bu cheklov bank tizimi uchun umumiy miqyosda hozircha ta'sir qilmaydi va so'nggi 10 yilda ham ta'sir qilmagan bo'lar edi. Ushbu soliq 5 yil muddatga joriy qilingan bo'lib, 2023-yil avgust oyidagi kuchli toshqinlardan keyin tiklanish loyihalarini moliyalashtirish uchun mo'ljallangan. Sloveniya €111 mln soliq tushumini kutmoqda, bu RWAning 0,3% ni tashkil etadi.

Yevropa Ittifoqidagi boshqa davlatlar bank foydasi, sof foiz daromadi (NII) yoki sof daromad oqimlari (Net Revenue) asosida soliq joriy qildi. Bu soliqlar umumiy foyda yoki "ortiqcha" foyda miqdoriga asoslanishi mumkin.

Boltiqbo'yi davlatlaridan Estoniya tijorat banklar bilan kelishuvga erishdi, bunda banklar ma'lum bir foydani dividend sifatida to'laydi, bu esa korporativ daromad solig'i (CIT)ga tortiladi. Estoniyada taqsimlanmagan foydaga soliq qo'llanmaydi. 2024-yilda CIT 20%, 2025-yilda esa 22% tashkil etadi. Banklar soliq tushumlarini ta'minlash uchun ikki yilda €120 mln dividend sifatida to'laydi. Bu RWAning 0,3% ni tashkil etadi. Bu kelishuv natijasida banklar joriy soliq miqdoridan bir necha barobar ko'proq pul ajratishi kerak. Ya'ni, 2024-yilda soliq tushumi miqdorini qoplash uchun jami soliq miqdoridan 5 barobar ko'p pul ajratish talab etiladi. 2025-yilda esa soliq miqdoridan 4,5 barobar ko'p pul ajratish kerak bo'ladi. Bu banklar uchun ikki yilda RWAning 3% hajmida dividend to'lashni anglatadi.

Latviya 2024-yilda bank foydasiga to'liq 20% Korporativ daromad solig'ini (CIT) joriy qildi (Latviyada odatda taqsimlanmagan foydaga soliq solinmaydi). Bu kelishuv doimiy bo'ladimi yoki yo'qligi hozircha aniq emas. Qo'shimcha ravishda, Latviya 2024-yil uchun bir martalik "Ipoteka qarz oluvchilarini himoya qilish to'lovi" (MBPF) ni joriy qildi. Ushbu to'lov banklar tomonidan qarz oluvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun ipoteka qarzlarining qoldiq qiymatidan 0,5% miqdorida to'lanadi. Agar bank 2024-yilda ipoteka foiz stavkasi 50% ga kamaytirsas, u holda ushbu to'lovni to'lashdan ozod bo'ladi. CIT tushumining kutilayotgan hajmi: €140 mln (RWAning 0,9%).

Litva 2023-yilning bir qismi va 2024-yil uchun "ortiqcha" sof foiz daromadi (NII)ga 60% miqdorida soliq (to'lov) joriy qildi. Ortiqcha NII 2018–2022-yillar davridagi o'rtacha NII miqdoridan 50% yuqori bo'lgan qismi sifatida belgilangan. Bu soliq mavjud tizimga qo'shimcha ravishda joriy qilingan bo'lib, unda banklar uchun korporativ daromad solig'i (CIT) no-moliyaviy korporatsiyalar (NFC) uchun stavkaga nisbatan 5 foiz punkt yuqori bo'lgan. Litva ushbu soliqdan €250 mln yig'di, bu RWAning 1,2% ni tashkil etadi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa (CESEE) davlatlaridan Chexiya 2023–2025-yillar uchun "ortiqcha" bank foydasiga 60% miqdorida soliq joriy qildi. Ortiqcha foyda 2018–2021-yillar davridagi o'rtacha foydadan yuqori bo'lgan qismi sifatida belgilangan. Chexiya har yili €600 mln yig'ilgan bo'lib, bu RWAning 0,5% ni tashkil etadi.

Vengriya 2022-yilda banklarning sof daromadi (foiz marjasi va xizmat haqlari daromadi) uchun 10% miqdorida soliq joriy qildi, 2023-yilning birinchi yarmida bu stavka 8% ga tushirildi. 2024-yildan bu soliq progressiv bo'lib, eng yuqori marjinal stavka 30% ga yetadi. Shuningdek, 2024-yilda Vengriya banklarga davlat obligatsiyalari portfelining 10% o'sishi hisobiga soliqdan 50% chegirma olish imkoniyatini yaratdi. Birinchi yilda Vengriya €640 mln yig'di, bu RWAning 0,6% ni tashkil etdi.

Ruminiya 2024 va 2025-yillar uchun banklar sof daromadiga ("aylanma mablag" deb atalgan) 2% soliq joriy qildi, 2026-yilda bu stavka 1% ga tushadi va doimiy qo'llaniladi. Ruminiya 2024-yilda €160 mln yig'ishni kutayotgan bo'lib, bu RWAning 0,2% ni tashkil etadi, 2025-yilda esa bu miqdor ikki barobar kamayishi mumkin.

Slovakiya banklar uchun korporativ daromad solig'i (CIT)ga qo'shimcha to'lov joriy qildi. Bular 2024-yilda 30%, har yili 5 foiz punktga pasayib, 2027-yilda 15% ga tushadi. 2024-yilda Slovakiya €340 mln yig'ishni rejalashtirgan, bu RWAning 0,8% ni tashkil etadi. Keyingi yillarda tushum pasayishi kutilmoqda.

Boshqa Yevropa Ittifoqi davlatlaridan Ispaniya 2023–2025-yillar uchun banklarning sof daromadiga 4,8 foiz punkt miqdorida qo'shimcha soliq (surtax) joriy qildi. Hukumat bu soliqni doimiy qilish niyatini bildirgan. Bundan tashqari, Ispaniyada bank CIT umumiy korporativ CITga nisbatan 5 foiz punkt yuqori. Soliq faqat Ispaniyadagi mahalliy banklar faoliyatiga tatbiq etiladi (chet el banklari yoki ispan banklarining chet eldagi daromadlari soliqqa tortilmaydi). Kichik banklarga bu soliq tatbiq etilmaydi. 2023-yilda Ispaniya €1,2 mlrd yig'di, bu RWAning 0,1% ni tashkil etdi.

Italiya 2023-yil uchun "ortiqcha" NIIga 40% miqdorida bir martalik soliq joriy qildi. Ortiqcha NII 2021-yil NII miqdoridan 10% yuqori bo'lgan qismi sifatida aniqlangan. Italiya banklari uchun ushbu soliqqa kapital jamg'arish bilan bog'liq opsional mexanizm joriy qilingan. Banklar soliq summasining 2,5 barobar miqdorini "taqsimlanmaydigan rezervlarga" yo'naltirishi mumkin. Bu rezervlar Tier 1 kapitalning bir qismi sifatida



hisoblanadi. Ko'pchilik italyan banklari ushbu imkoniyatdan foydalandi. Agar kapital jamg'arish opsiyasi bo'lmaganida, Italiya €3 mlrd yig'gan bo'lardi, bu RWAning 0,25% ni tashkil etgan edi.⁴

Tijorat banklari to'laydigan soliqlarning keskin ortishi biznes muhitining barqarorligini pasaytiradi. Hatto juda past yoki ramziy ahamiyatga ega bo'lgan bank soliqlari ham siyosiy iqtisodiyot bosimlarini engillatishi mumkin, biroq byudjetga katta daromad keltirmasligi va soliq tizimining barqarorligiga nisbatan ishonchga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, bank majburiyatlari yoki aktivlariga soliq qo'yish byudjet daromadlarining barqarorligiga yordam beradi. Biroq, bu turdagi soliq iqtisodiy pasayish davrida banklar uchun og'ir yuk bo'lishi mumkin, chunki bank foydasi kamayganda soliqni to'lash imkoniyati ham pasayadi.

Shu bois, oxirgi vaqtlarda banklarga qo'yilgan vaqtinchalik (windfall) soliqlar, asosan, foyda yoki daromadga asoslangan bo'lib, aktiv yoki majburiyatlarga soliq esa uzoq muddatli yoki doimiy ravishda joriy etilgan.

Agar soliq oqimga (masalan, foyda yoki daromad) asoslangan bo'lsa, uning bazasini manipulyatsiya qilish osonroq bo'ladi. Banklar vaqtinchalik soliqlar amal qilgan davrda ehtiyot jamg'armalarni shakllantirish yoki taqsimlanmaydigan rezervlardan foydalanish orqali foyda ko'rsatkichlarini o'zgartirishi mumkin. Shuningdek, bank guruhlar daromadlar va foydani pastroq soliq stavkalari qo'llanadigan hududlarga taqsimlash uchun ichki moliyaviy operatsiyalar (intragroup lending) narxlashini o'zgartirishi mumkin.

Foyda yoki daromadga asoslangan soliqning aktiv va majburiyatlarga soliqdan ustunligi shundaki, u pul-kredit siyosati stavkalarining depozit stavkalariga o'tishi (pass-through) jarayonini rag'batlantirishi mumkin. Ya'ni, banklar depozitlar uchun raqobatni kuchaytirish masalasida ikki omilni inobatga oladi: qisqa muddatda yuqori foiz to'lash xarajatlari va uzoq muddatda mijozlar bazasini kengaytirishdan olinadigan foyda. Agar soliq depozit yoki aktivlarga emas, balki foyda yoki daromadga asoslangan bo'lsa, banklar depozit stavkalarini oshirishga moyil bo'lishi mumkin.

Foyda (yoki daromad) solig'i joriy etilganda, banklar yuqori foiz xarajatlarning bir qismini tashqi iqtisodiy muhitga yuklashi mumkin, chunki bu xarajatlar soliq summasini kamaytiradi. Bu banklarni depozitlar uchun raqobatni kuchaytirishga undaydi. Bu ta'sir ayniqsa vaqtinchalik foyda yoki daromad solig'i joriy etilganda kuchliroq bo'lishi mumkin, chunki kelajakda soliq bekor qilinishi banklarga katta depozit bazasidan to'liq foyda olish imkonini beradi.

Biroq, bu ta'sirlarning bir qismi banklarning soliq yukining oshishiga javoban foiz marjasini oshirishi, shu jumladan, depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini pasaytirishi mumkinligi bilan tejalishi mumkin. Shuning uchun foyda yoki daromad solig'i boshqa bank soliq turlariga nisbatan pul-kredit siyosati stavkalari bank depozitlariga o'tishini (pass-through) rag'batlantirishi mumkin bo'lsa-da, bu soliqning umumiy ta'siri aniq emas.

Bank foydasi dastlabki taxminga ko'ra, bankning sof daromadi (net revenue)dan operatsiya va ehtiyot jamg'armalar (provisioning) xarajatlarini chiqarib tashlash orqali hisoblanadi. Boshqa korporativ daromad solig'i (CIT) kabi, bank foydasiga qo'yilgan soliq banklarning operatsiya xarajatlarini samarali boshqarishga bo'lgan rag'batini kamaytiradi, chunki xarajatlarni kamaytirishdan kelib chiqadigan foyda qisman soliq orqali yo'qotiladi.

Shu bilan birga, foyda solig'i banklarni ehtiyot jamg'armalarni shakllantirishga rag'batlantiradi, chunki bu xarajatlar soliq bazasini kamaytiradi. Bu esa banklarga noqonuniy kreditlarni (NPL) o'z vaqtida tan olish va hal qilish imkoniyatini beradi, bu esa iqtisodiyotda kreditlarning samarali taqsimlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Bankning sof foiz daromadi (NII) va sof foizsiz daromadi yig'indisi (net non-interest income)ni tashkil etadi. Nazariy jihatdan, NII solig'i bank foydaliligiga pul-kredit siyosati choralarning ta'sirini to'g'ridan-to'g'ri aks ettiradi, jumladan, bugungi kunda past foizli depozitlar orqali amalga oshirilayotgan ta'sirlarni. Biroq, faqat NIIga soliq solish va nofoizli daromadni soliqqa jalb qilmaslik vaqt o'tishi bilan bank daromad manbalari orasida almashinuvga olib kelishi mumkin. Masalan, banklar raqobatbardoshroq stavkalar taklif qila boshlashi, biroq xizmat to'lovlarini oshirishi mumkin, bu esa soliq bazasining torayishiga olib keladi.

2-jadval bank soliqlari bazasi bo'yicha turli variantlarning tahlilini umumlantiradi. Jadvalda "XX" kuchli ta'sirni, "X" esa yumshoqroq ta'sirni anglatadi. Masalan, aktivlar yoki majburiyatlar bo'yicha soliq barqaror byudjet daromadini ta'minlaydi, banklarni xarajatlar samaradorligini oshirishga rag'batlantiradi va uni chetlab o'tish qiyin. Biroq, bu turdagi soliqlar iqtisodiy pasayish davrida, ya'ni bank foydasi kamayganda, banklar uchun og'irroq bo'lishi mumkin va depozitlar bo'yicha pul-kredit siyosati stavkalarining o'tishini rag'batlantirmaydi.

Foyda, sof daromad yoki NIIga soliq esa iqtisodiy pasayish davrida banklar uchun qo'shimcha yuk bo'lmaydi (ayniqsa foyda solig'i, chunki unda ehtiyot jamg'armalari soliq bazasidan chiqarib tashlanadi). Shuningdek, sof daromad va NII solig'i banklarni xarajatlarni samarali boshqarishga rag'batlantirib, pul-kredit siyosati stavkalarining depozitlarga o'tishini osonlashtiradi.

Shuningdek, sof daromad yoki NII solig'i soliq bazasiga ehtiyot jamg'armalari va operatsiya xarajatlarini o'zgartirish yo'li bilan ta'sir ko'rsatish imkoniyatini cheklaydi. Shuningdek, sof daromad solig'i foizli va foizsiz daromadlar orasidagi o'zgarishlardan (substitution) himoyalangan bo'ladi.

⁴ Tier 1 kapital – bankning eng muhim va yuqori sifatli kapital qismi bo'lib, u moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi va ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi birinchi himoya vazifasini bajaradi.

2-jadval. YeI davlatlaridagi yangi joriy etilgan bank soliqlarini iqtisodiyotga afzalliklari⁵

Bank balansidagi ko'satkichlar Iqtisodiy o'zgarishlar	Aktivlar yoki majburiyatlar	Foyda	Sof daromad	NII
Barqaror byudjet daromadi	XX			
Iqtisodiy pasayish davrida barqarorlik		XX	X	X
Xarajatlarning samaradorligini rag'batlantirish	XX		XX	XX
Monetar siyosat stavkalariga ta'siri		X	X	X
Soliqdan qochishning qiyinligi (qisqa muddatda)	XX		XX	X

Izohlar: XX: kuchli ta'sir, X: yumshoqroq ta'sir

Bu jadval bank soliqlari bazasini tanlashdagi asosiy omillarni ko'rsatadi. Masalan, aktivlar yoki majburiyatlarga asoslangan soliqlar byudjet daromadini barqaror saqlaydi va soliqdan qochishni qiyinlashtiradi, lekin iqtisodiy pasayish davrida banklarga og'irlik keltirishi mumkin. Boshqa tomondan, foyda, sof daromad va NIIga asoslangan soliqlar iqtisodiy pasayish davrida kamroq noustuvorlikka olib keladi va monetar siyosat stavkalariga ta'sirini yaxshiroq ta'minlaydi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, banklar uchun fiskal barqarorlik va xarajat samaradorligi muhim omillardir. Shuningdek, pul-kredit siyosatining ta'siri va iqtisodiy tanazzullarda barqarorlik ham banklar faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy faktorlardan biri hisoblanadi. Bu bosqichda, banklarga yangi joriy etilgan soliqlarning korxonalar iqtisodiy faoliyatiga ta'sirini baholash tahlil xulosalari uch qismga bo'linadi:

Bank solig'ining korxonalar kredit ta'minotiga ta'sirini baholash;

Kredit ta'minotidagi o'zgarishlarning korxonalar iqtisodiy natijalariga ta'sirini aniqlash;

Soliq tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy xarajatlarni baholash.

Birinchi bosqichda bank solig'ining kredit ta'minotiga ta'siri baholanadi. Bu jarayonda kredit bozorida talab va taklifni ajratish uchun maxsus statistik usullardan foydalaniladi. Ikkinchi bosqichda kredit ta'minotidagi o'zgarishlar investitsiya, sotuvlar va ish o'rinlari o'sishiga ta'sir qilishi mumkinligi tekshiriladi. Uchinchi bosqichda esa banklarga yangi joriy etilgan soliqlarning korxonalar investitsiyalari va ish o'rinlari o'sishiga ta'siri o'rganiladi.

Bunday bosqichma-bosqich yondashuv mikro va makroiqtisodiy darajadagi tahlillarni birlashtirishga imkon beradi, shu orqali banklarga yangi joriy etilgan soliqlar tartibining umumiy ta'sirini baholash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yevropa Ittifoqi davlatlarida tijorat banklari uchun soliq tizimi murakkab va har bir davlatga xos o'ziga xos jihatlarga ega. Soliqqa tortish tijorat banklarining daromadiga, moliyaviy operatsiyalariga va ijtimoiy mas'uliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, tijorat banklari to'laydigan soliqlarni optimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqishga intiladi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida tijorat banklari to'laydigan soliqlar davlat byudjeti uchun daromad manbai bo'lishi mumkin, lekin ularning makroiqtisodiy ta'siri ehtiyotkorlik bilan baholanishi lozim. Bank soliqlarining ortiqcha yuklamasi kredit bozoridagi samaradorlikni pasaytiradi, investitsiyalar va ishlab chiqarish sur'atlarini sekinlashtiradi va umuman iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun soliq siyosati ishlab chiqilganda, uning moliyaviy sektor va real iqtisodiyotga ta'siri muvozanatli tarzda hisobga olinishi kerak.

Ushbu tadqiqotda biz Yevropa Ittifoqi davlatlarida tijorat banklari to'laydigan soliqlarning 2023-yilda moliyaviy institutlar aktivlariga joriy qilingan solig'ini keys-tahlil sifatida qo'llab, bank solig'ining mikro va makro darajadagi iqtisodiy xarajatlarni o'rgandik. Empirik natijalarimiz shuni tasdiqlaydiki, banklarga ortiqcha soliq yuklatilishi ularning foydasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va rentabellikning pasayishi kreditlashga ta'sir qiladi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy faollikning pasayishi bilan namoyon bo'ladigan ijtimoiy xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Eng asosiy siyosiy xulosa shundaki, moliya sohasidagi fiskal o'zgarishlarni nazorat qiluvchi mutaxassislar moliyaviy vositachilarning rentabelligi iqtisodiy o'sish uchun muhim ekanligini tan olishlari kerak. Ayniqsa, yangi choralar joriy etilganda, ushbu soliqlarning ayrim xususiyatlari bank sektori uchun noma'lumlikni oshirib, banklarning kredit berish imkoniyatlarini cheklab, iqtisodiyotga salbiy ta'sirlarga olib kelmasligiga e'tibor qaratilishi lozim.

5 <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/001/2024/143/article-A001-en.xml> veb sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Albertazzi, U., Notarpietro, A., Siviero, S., 2016. An inquiry into the determinants of the profitability of Italian banks. *Bank Italy Occas. Pap.* 364.
2. Alfaro, L., García-Santana, M., Moral-Benito, E., 2021. On the direct and indirect real effects of credit supply shocks. *J. Financ. Econ.* 139 (3), 895–921.
3. Altavilla, C., Andreeva, D., Boucinha, M., Holton, S., 2019. Monetary policy, credit institutions and the bank lending channel in the euro area. *ECB Occas. Pap.* (222).
4. Amiti, M., Weinstein, D.E., 2018. How much do idiosyncratic bank shocks affect investment? Evidence from matched bank-firm loan data. *J. Political Econ.* 126 (2), 525–587.
5. Baker, A.C., Larcker, D.F., Wang, C.C., 2022. How much should we trust staggered difference-in-differences estimates? *J. Financ. Econ.* 144 (2), 370–395.
6. Banerjee, R.N., Gambacorta, L., Sette, E., 2021. The real effects of relationship lending. *J. Financ. Inter.* 48, 100923.
7. Basel III, B.C.B.S., 2011. A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems. Bank for International Settlements, Basel, Switzerland.
8. Belkhir, M., Naceur, S.B., Chami, R., Samet, A., 2021. Bank capital and the cost of equity. *J. Financ. Stab.* 53, 100843.
9. Berg, T., Reisinger, M., Streitz, D., 2021. Spillover effects in empirical corporate finance. *J. Financ. Econ.* 142 (3), 1109–1127.
10. Borsuk, M., Kowalewski, O., Qi, J., 2023. The dark side of bank taxes. *J. Bank. Financ.* 157, 107041.
11. Boscá, J.E., Domenech, R., Rubio-Ramírez, J., 2019. Macroeconomic Effects of Taxes on Banking (Vol. 19, No. 05). FEDEA.
12. Brei, M., Gambacorta, L., Lucchetta, M., Parigi, B.M., 2023. How effective are bad bank resolutions? New evidence from Europe. *J. Financ. Stab.*, 101153.
13. Buch, C.M., Hilberg, B., Tonzer, L., 2016. Taxing banks: an evaluation of the German bank levy. *J. Bank. Financ.* 72, 52–66.
14. Capelle-Blancard, G., Havrylchyk, O., 2017. Incidence of bank levy and bank market power. *Rev. Financ.* 21 (3), 1023–1046.
15. Claessens, S., Keen, M., Pazarbasioglu, C., 2010. Financial Sector Taxation: The IMF's Report to The G-20 and Background Material. International Monetary Fund, Washington.
16. Devereux, M., Johannesen, N., Vella, J., 2019. Can taxes tame the banks? Evidence from the European bank levies. *Econ. J.* 129 (624), 3058–3091.
17. EBA (2023). Risk Assessment Report of the European Banking Authority. December 2023.
18. ECB (2024). Opinion of the European Central Bank of 16 December 2024 on taxes on assets of certain financial market participants and additional corporate income taxes on certain credit institutions (CON/2019/44).
19. ECB, 2023. Financial Stability Review. European Central Bank (November, Frankfurt). Favara, G., Ivanov, I., Rezende, M., 2023. GSIB surcharges and bank lending: evidence from US corporate loan data. *J. Financ. Econ.* 142 (3), 1426–1443.
20. FT (2023). Italy Joins Wave of Windfall Taxes on Banks Across Europe. Available at: <https://www.ft.com/content/a1fb90a5-46e4-4a16-acc9-a1dbebebd3c7> (Accessed: 13 August 2023).
21. Gropp, R.E., 2014. Taxes, banks and financial stability. *Tax. Regul. Financ. Sect.* 55.
22. Haskamp, U., 2018. Spillovers of banking regulation: the effect of the German bank levy on the lending rates of regional banks and their local competitors. *Int. Econ. Econ. Policy* 15 (2), 449–466.
23. IMF (2023). Macro-Financial Implications of the Bank Tax. Republic of Poland. Selected Issues. <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/002/2023/211/article-A003-en.xml> (Accessed: 10 June 2023).
24. IMF, 2024. IMF Country Report No. 19/37. Poland, Financial System Stability Assessment. IMF Publication Services, Washington, pp. 1–80 (February).
25. Klein, P.O., Turk-Ariss, R., 2022. Bank capital and economic activity. *J. Financ. Stab.* 62, 101068.
26. Kogler, M., 2019. On the incidence of bank levies: theory and evidence. *Int. Tax. Public Financ.* 26 (4), 677–718.
27. S&P Global (2023). Bank Windfall Taxes Could Spread Further in Europe amid Fight Against Inflation. Available at: <https://www.spglobal.com/marketintelligence/en/news-insights/latest-news-headlines/bank-windfall-taxes-could-spread-further-in-europe-amid-fight-against-inflation-71823515> (Accessed: 10 June 2023).
28. Sobiech, A.L., Chronopoulos, D.K., Wilson, J.O., 2021. The real effects of bank taxation: evidence for corporate financing and investment. *J. Corp. Financ.* 69, 101989.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>